

TALABA-YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALAS
TIZIMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7826236>

H. Safoyev

Buxoro davlat universteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi tarkibiga o'sib kelayotgan yosh avlodning oilada, maktabda, to'garaklarda harbiy soha, armiya xizmati ishi bilan tanishib borishi, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash mashg'tulotlari amalga oshirish jarayonida amalga oshirilishi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar tahlil qilingan.

Калит сўзлар: Ma'naviy-ma'rifiy Xalq tinchligi, vatanparvarlik, ta'lism-tarbiya, barkarorlik, vatanparvarlik, totuvlik, g'oyaviy, xavfsizlik, xalqaro, ta'lism-tarbiya, tarixiy tajribalar, harbiy vatanparvarlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160 qarorida "Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda.

Barcha ijtimoiy-siyosiy faoliyat turlarida bo'lganidek, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishida ham ma'lum bir tizim, shakl va ish uslublari mavjud. Bu tizim yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash bo'yicha kompleks xususiyatga ega bo'lib, milliy armiyamizga har tomonlama yetuk harbiy kadrlarni tayyorlashni amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat olib boruvchi barcha o'quv-tarbiya muassasalari, davlat tashkilotlari, shuningdek, yoshlar tarbiyasiga mas'ul nodavlat tashkilotlarni ham o'z ichiga oladi.

Jumladan, yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining yo'nalishlari oila ta'limi va tarbiyasi, maktabgacha ta'lim tizimi, umumiy o'rta ta'lim tizimi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi, oliy ta'lim tizimi, harbiy ta'lim tizimi, harbiy xizmat tizimi, pedagogika, psihologiya, ta'lim va tarbiya metodlari, ta'lim va tarbiya jarayoni, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni yo'nalishlaridan tarkib topadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi uzlusiz jarayon bo'lib, inson hayotining barcha davrlarida o'ziga xos tarzda shakllanib, rivojlanib, namoyon bo'lib boradi va har bir shaxsning hayotida jiddiy ahamiyatga ega bo'ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi bilan uzlusiz bog'lik holda uning yuqori darajasi bo'lgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning zarur yo'nalishi hisoblanadi. Shunga ko'ra, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham uzlusiz jarayondir.

Shu bilan birga, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi tarbiyaning barcha turlari bilan bog'liq va ularga asoslanadi hamda armiya bilan xalqning birligiga tayanadi.

Hozirda mavjud harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi tarkibiga o'sib kelayotgan yosh avlodning oilada, maktabda, to'garaklarda harbiy soha, armiya xizmati ishi bilan tanishib borishi, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash mashg'tulotlarida qatnashishi, "Vatanparvar"

tashkiloti tizimidagi o'quv muassasalarida o'qishi, texnik va amaliy sport turlari bilan shug'ullanishi, harbiy sport musobaqlari, "Burgutlar", "Yosh chegarachilar" va boshqa harbiy sport o'yinlari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oliv harbiy bilim yurtlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi va boshqalar kiradi.

Bu tizim faoliyatida mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, har tomonlama barkamol insonni shakllantirish, yoshlarimiz qalbida Vatanga yuksak muhabbat, Qurolli Kuchlarimizdan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg'ularini kamol toptirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimi yo'nalishidagi tadbirlar muhim o'rin tutadi.

Harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish yuzasidan hozirgi dolzarb vazifalarga quyidagilar kiradi:

- bugungi zamonda dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotganligini, xalqimizning ma'naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo'lgan, yot va buzg'unchi g'oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo'llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchayganligini, ayniksa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun keskin kurash ketayotganligini hisobga olish;

- bunday sharoitda harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatgacha bo'lgan yoshdagi farzandlarimizni tarbiyalash va ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarning sifati va samaradorligini yuksaltirib borish, bu ishlarning chuqur va boy mazmunli bo'lishini, ta'sirchanligini ta'minlash choralarini ko'rish;

- ta'lim muassasalari, harbiy va mehnat jamoalarida, mahallalarda yoshlarimiz qalbida Vatanga yuksak muhabbat, Qurolli Kuchlarimizdan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg'ularini kamol toptirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish;

- harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan, dolzarb vazifalarni amalga oshirishda Mudofaa vazirligi qoshidagi Jamoatchilik kengashi, O'zbekiston yoshlari ittifoqi hamda boshqa jamoat tashkilotlari va tuzilmalar, madaniyat, san'at va sport sohalarining ko'zga ko'ringan namoyandalari bilan hamkorlikda ish olib borish;

- ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, ilm-fan yutuqlari va Internetning milliy tarmog'i imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- yoshlar va fuqarolar orasida Vatanni himoya qilish g'oyalarni targ'ib qilish, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga daxldor barcha tashkilotlar va o'quv muassasalarida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy ommaviy ishlarning yanada yuqori darajada olib borilishini ta'minlash.

Shularni hisobga olgan holda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish zarur:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun harbiy-texnik mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha o'quv muassasalariga chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarni sifatli saralash maqsadida Mudofaa vazirligining joylardagi mudofaa ishlari bo'yicha bo'limlari bilan birgalikda keng ko'lamli targ'ibot ishlarini amalga oshirish, o'quv jarayoni davomida chaqiriluvchi o'quvchilar bilan harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish.

2. Mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda imzolangan rejalarga asosan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan chaqiriqqacha yoshlar bilan keng ko'lamli vatanparvarlik tadbirlarini o'tkazish, mazkur tadbirlarning ahamiyatini va samaradorligini oshirib borish.

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini va umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini harbiylar hayoti, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlar va xizmat jarayoni bilan yaqindan tanishtirish maqsadida garnizonlar bilan hamkorlikda o'quvchilarning harbiy qismlarga sayohatlarini amalgga oshirish.

4. Mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda imzolangan rejalarga asosan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini va umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan sport tadbirlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etish va o'tkazish.

3. Kamol topib kelayotgan yosh avlodni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish, ular ongida harbiylik kasbiga qiziqishni shakllantirish hamda Vatan himoyasi muqaddas burch ekanligini targ'ib qilish maqsadida o'quvchi yoshlarning Qurolli Kuchlarga harbiy-texnik mutaxassislar tayyorlovchi o'quv muassasalariga tashriflarini amalgga oshirish.

4. Harbiy o'quv muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning ota-onalari, mahalliy davlat organlari, jamoatchilik vakillari va chaqiriqqacha yoshlar ishtirotida ularni o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirish maqsadida "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazish.

5. Harbiy o'quv muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, o'qish davomida o'zining namunali xulqi bilan safdoshlari orasida o'rnak bo'lgan hamda o'tkazilgan sport musobaqalarida g'olib va sovrindor bo'lgan o'quvchilarni taqdirlash.

6. "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" sport o'yinlari mash'alasini yoqish ishlarini tashkil qilishda yoshlarni sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish, ularni vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltiradigan tadbirlarni amalgga oshirish. (Bu tadbirlarda mash'alani Quyosh qurilmasida yoqish, uni har bir viloyat, tuman, shaharlardan olib o'tish jarayoni va tegishli tadbirlar: kutib olish, miting, konsertlar, boshka tadbirlar tashkil qilinishining ma'naviy-ma'rifiy hamda sportni ommalashtirish va vatanparvarlik tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayonlarda tasdiqlangan rejaga aniq roya qilish, uning to'liq va sifatlari bajarilishini hamda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalgga oshiriladigan tadbirlarning ibratli darajada bo'lishi natijasida ularning ijtimoiy-tarbiyaviy ta'siri va ahamiyati yanada ortib, yoshlarda iftixor tuyg'ulari hosil qilib, ularning sport bilan shug'ullanishga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.)

7. O'quv muassasalari o'quvchilarining otaliq harbiy qismlarga sayohatlarini amalgga oshirish, tashkilotda Qurolli Kuchlar tizimida o'tkazilgan tanlovlarning g'oliblari bo'lgan milliy armiyamiz shaxsiy tarkibidagi zabit va serjantlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish va boshqalar.

Bugungi kunda yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy armiyamiz saflarida har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli, Vatan taqdiri, yurt tinchligi va himoyasi yo'lida bor salohiyati bilan mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir shijoatli yoshlarni tarbiyalash bo'yicha

qator ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Bu ishlarni bevosita amalga oshirish bo'yicha asosiy jarayonlar oilada, mакtabgacha, maktab va boshqa ta'lif muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini olib borish hamda quyidagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonlarini o'z ichiga oladi:

- chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash mashg'ulotlarini olib borish;
- yosh avlodning oilada, maktabda, to'garaklarda harbiy soha, armiya xizmati ishi bilan tanishib borishini ta'minlash;
- texnik va amaliy sport turlarini ommalashtirish va rivojlantirib borish;
- harbiy sport musobaqalarini o'tkazib borish;
- "Burgutlar", "Yosh chegarachilar" va boshqa harbiy-sport o'yinlarini tashkil qilib borish;
- yoshlarning madaniyat, adabiyot, san'at va sport sohalaridagi taniqli namoyandalar bilan muloqotlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirib borish.

Bugungi kunda talaba-yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining turli shakllarini maqsadli qo'llash ta'lif jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Buning uchun oliy ta'lif muassasalari ta'lif jarayonida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining sinovdan o'tgan qator shakl va metodlaridan unumli foydalanish zarur.

Ular quyidagilar:

- harbiy vatanparvarlik mavzusidagi ma'ruzalar, suhbatlar, hikoyalar, mavzulashtirilgan kechalar, turli uchrashuvlar o'tkazish;
- harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yo'nalishida sayohatlar, jasorat darslari, harbiy-sport musobaqalari va intellektual o'yinlar tashkil etish;
- harbiy vatanparvarlik mavzusidagi hujjatlari va kinofilmlar namoyishini uyushtirish;

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid bu kabi shakllar va metodlarni keng ko'lamda olib borish, ularning turli psixologik qatlamlari, yosh guruhlari o'rtasidaga tafovutlar va farqlanishlarni bartaraf qiladi. Buning natijasida talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissi samarali ta'minlanadi.

Shuning uchun ham oliy ta'lif muassasalarida harbiy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, talaba-yoshlar ongi va qalbida Vatan himoyachilari shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'zining munosib o'mini topishi uchun amaliy-hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishlariga imkon yaratishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -Toshkent, O'zbekiston, 1992-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. PQ-3160, 2017-yil 28-iyul. www.president.uz
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida PF-4947-son 07.02.2017
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./ M.X.Toxtaxodjayevaning umumiyl tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380